



INGLIZ TILIDAGI LAQAB VA TAXALLUSLAR YASALISHIDA NOMINATSIYA TURLARI.

A.Obidova

Farg'ona davlat universiteti doktorant

Ingliz tilida nominatsiya turlari haqida gapirishdan oldin nominatsiya hamda unga doimiy hamroh bo'lgan motivatsiya jarayonining o'xshash va farqli tomonlari haqida biroz ma'lumot berishni lozim topdik.

Laqablarni nomlash va ularni asoslovchi motivatsiya bir-biriga juda yaqin hamda o'zaro bog'liq. Bu soha bilan ko'plab tadqiqotchilar shug'ullangan, jumladan, B.A. Serebrennikov, A.A. Ufimseva (1977), B.V. Yakushin (1984), N.D. Golev (1989), O.A. Prokudina (1985), L.B. Nikolsky (1974), Yu.S. Maslov (1987), V.G. Gak (1999), A.A. Zhivoglyadov (1987) va boshqalar.

B.A.Serebrennikov va A.A.Ufimseva nominatsiyani shunday tushuntirishadi: "Bu tilning ichki qonuniyatlari va tuzilishi asosida, odamlarning umumiy hayotiy tajribasini ularning tilidagi so'zlar orqali ifodalash va shu orqali tashqi dunyodagi narsalarga nom berish demakdir.

Motiv deganda esa biror mazmunni ifodalash uchun ishlatiladigan va boshqa belgilarni o'zida mujassam etgan alohida xususiyat tushuniladi. U diqqatni tortadi, narsalarni ajratib ko'rsatadi, ularning o'ziga xos tomonlarini belgilaydi va nima uchun aynan shu belgi tanlanganini tushuntiradi. Motiv ana shu belgilarga tayangan holda shakllanadi.

Laqablar yasashda nominatsiyaning muhim turlaridan biri tavsifiy (descriptive nominatsiya) hisoblanadi, ya'ni substantsiyaning (shaxs yoki predmetning) qandaydir xossalari haqida axborot berishdir. Bunday nominatsiyada laqablar ko'pincha substantsiyaga xos yoki undan ajratilgan belgilar – sifatlar, holatlar, fe'l-harakatlar orqali shakllanadi. Ushbu belgi nomlari shaxsning tashqi ko'rinishi, harakteri, ruhiy holati yoki faoliyati asosida tanlanib, uni boshqa shaxslardan farqlovchi nom sifatida xizmat qiladi: barrel of laugh – quvnoq, cheapskate – ziqna, xasis, class clown – haziltoy, crybaby – yig'loqi, baqiroq, Daredevil – jur'atli, boshga savdo ko'targan, drama queen – har bir vaziyatga keskin munosabat bildiradigan odam, har qanday kichik muammoni jiddiy qabul qiladigan odam, fifth wheel – ortiqcha odam, vaqtida kelmagan odam, know-it-all – hamma narsani bilimdon, bundan tashqari, inson tomonidan yaratilgan mavhum tushunchalarning nomlari ham troublemaker – tinchlik va tartib buzuvchi, weirdo – g'alati odam, hangry – ochlik tufayli g'azablangan va jahldor (angry + hungry = hangry), wishy-washy – bo'sh, zaif; happy-go-lucky – beparvo, beg'am, jumpy / jittery – asabiy, o'zini tuta olmaydigan.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Shu tariqa, predikatsiya vazifasini bajaruvchi belgili nomlar laqablar tizimida identifikatsiya, baho berish, stilistik bo'yoq berish kabi funksiyalarni bajaradi.

Eng yuqori darajadagi mavhumlik (abstraktsiya) odatda vaqtga, sabab-oqibatga yoki shartli munosabatlarga asoslangan laqab nominatsiyalarida namoyon bo'ladi. Bunday nominatsiyalar shaxsga bevosita bog'liq bo'lmagan, balki unga nisbatan umumiy baho, metaforik obraz yoki konnotativ ma'no orqali laqab beradi. Masalan, night owl – tun yotmay yuruvchi odam (masalan, kechki payt faol bo'ladigan shaxs), odd ball – noodatiy fikrlovchi, g'ayrioddiy odam, old fogey – zamonaviylikdan orqada qolgan, eskicha qarashdagi shaxs, one pancake short of a single-stack – aqlan to'liq emas, fikrlashda sustlikka ega bo'lgan odam (kinoyaviy) kabilar.

Bu kabi laqablar belgi nomlari (adjectives, verbs, adverbs, abstract nouns) asosida tuziladi. Ya'ni, ular ko'pincha sifat, fe'l, ravish yoki mavhum ma'nodagi otlar shaklida bo'lib, insonning ichki holati yoki xatti-harakatini bevosita emas, balki assotsiatsiya orqali ifodalaydi.

Predmetlar va belgilar nomlari o'rtasida shaxslarning kasbiga, boshqa shaxslar yoki narsalarga munosabatiga ko'ra beriladigan funksional va relyatsion nomlar mavjud. Insonning kasbi bilan bog'liq laqab eng keng tarqalgan usullardan biridir. Masalan, inglizcha "writer" - yozuvchi so'zidan good writer, modern writer, "doctor" so'zidan - Doctor Ox, Doctor Aybolit kabilar

Qisqartirish asosidagi nominatsiya (Abbreviated Nomination) – bu laqablar (nicknames) to'g'ridan-to'g'ri shaxsning ismi yoki familiyasining qisqartirilgan shakli asosida hosil qilinadigan nominatsiya turi bo'lib, bunday laqablar odatda fonetik soddalik, do'stona munosabat, yaqinlik yoki norasmiylikni ifodalaydi. Ularning yasashida odatda ismning birinchi bo'g'ini yoki eng taniqli qismini oladi yoki kichik o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar bilan shakllanadi. Masalan, Robert – Bob, William – Will, Bill, Elizabeth – Liz, Beth, Margaret – Maggie, Meg, Jennifer – Jen, Anthony – Tony, Catherine – Cat, Cathy, Jonathan – Jon, Henderson – Hendy, Thompson – Tommo, James – Jim, Jimmy, Charles – Charlie, Chuck, Richard – Rich, Rick, Dick, etc.

Shunday qilib, qisqartirilgan laqablar odamlar o'rtasidagi samimiy munosabatlarni ko'rsatadi. Ular bir jamoaga tegishlilik, yaqin do'stlik yoki umumiy birlikni anglatishi mumkin. Bundan tashqari, bunday laqablar norasmiy muloqot va do'stona muhitni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

O'xshatish asosidagi nominatsiya (Metaphorical/Analogical Nomination)– bu shaxsga beriladigan laqabning boshqa bir obyekt, hayvon, mashhur shaxs yoki tushuncha bilan majoziy (metaforik) asosda bog'lanishi bo'lib, bu usul shaxsning xarakteri, tashqi ko'rinishi, ijtimoiy roli yoki fe'l-atvoriga o'xshash jihatlar asosida yasaladi. Shuningdek, bu usulda yasalgan laqablar ijobiy yoki salbiy konnotatsiyaga ega bo'lishi mumkin va odatda kino, sport, armiya, maktab, yoki do'stlar muhitida keng ishlatiladi. Masalan, tiger – jasur, agressiv, kuchli inson, hawk – hushyor, kuzatuvchan,





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

tajovuzkor inson, bear – yirik gavdali, sokin yoki ba'zida qo'pol inson, Einstein – juda aqlli inson, Romeo – romantik yoki muhabbatga oshno inson, angel – mehribon, pokiza, saxiy inson, snake – xiyonatkor yoki sirli shaxs, etc.

Misollardan ham ko'rinib turibdiki, o'xshatishga asoslangan laqablar insonning fe'l-atvori yoki jamiyatdagi o'rni haqidagi semantik va madaniy tasavvurlardan kelib chiqadi. Bunday laqablar inson xarakterini yoki rolini ma'naviy va ramziy obrazlar orqali ifodalaydi hamda til va madaniyatni o'rganish uchun qimmatli manba hisoblanadi, chunki bu laqablar jamiyatning urf-odatlari va umumiy tasavvurlari (stereotiplari)ga tayanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Леонович О.А. В мире английских имен: учеб, пособие по лексикологии для студентов лингв, вузов и фак. иностр, яз. и преподавателей сред, школ / О.А. Леонович. - 2-е издр., исп. и доп. - М.: Астрель: АСТ, 2002. - 157 с.\
2. Гаджиев Т. К вопросу о древней ономастике Азербайджана // Вопросы азербайджанской филологии. Баку, 1984. Вып. 2. С. 125.
3. Максимчук Н.А. Нормативно-научная картина мира русской языковой личности в комплексном лингвистическом рассмотрении: дис. ... д-ра филол. наук. Москва, 2002. 413 с
4. Бестужев-Лада И.В. Исторические тенденции развития антропонимов // Личные имена в прошлом, настоящем и будущем. – М.: Наука, 1970. – С. 24-25.
5. Журавлев А.Ф. Технические возможности русского языка в области предметной номинации / А.Ф. Журавлев // Способы номинации в современном русском языке / отв. ред. Д.Н. Шмелев. - М.: Наука, 1982. - С. 46-50.
6. Гак В.Г. К типологии лингвистических номинаций / В.Г. Гак // Языковая номинация (общие вопросы) / отв. ред. Б.А. Серебренников, А.А. Уфимцева. - М.: Наука, 1977. - С. 244-246.
7. Большой энциклопедический словарь // Большая Российская энциклопедия. - М.: Норинт, 2000. - 1536 с.
8. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – 6-jild. – Toshkent. O'zME, 2003. – 704b
9. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Сов.Э., 1969. – С. 507.
10. Колшанский Г.В. Лингво-гносеологические основы языковой номинации / Г.В. Колшанский // Языковая номинация (общие вопросы) / отв. ред. Б.А. Серебренников, А.А. Уфимцева. - М.: Наука, 1977. - С. 99-146.
11. Серебренников, Б.А., Уфимцева, А.А. Языковая номинация (Общие вопросы) - Москва: Издво Наука, 1977. - 359с.
12. Степанов, Ю.С. Номинация, семантика, семисология (виды семантических определений в современной лексикологии) / Ю.С. Степанов // Языковая номинация: общие вопросы. - М., 1977. - С. 294-358.

